



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Kurbanov Ilxom Begamovich**

Toshkent Davlat iqtisodiyot  
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ilmiy tezisda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa ortishning iqtisodiy mohiyati, daromad solig‘i va yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadlarini davlat byudjeti va soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta’siri, muammolar va ularni hal etish masalalari xususida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy shaxslar, daromad, daromad solig‘i, soliq, imtiyoz, samaradorlik, soliq stavkasi.


Mamlakatimizda ishchi kuchi zich joylashgan bo‘lib, aholi bandligini ta’minlash orqali ularning daromadi va turmush farovonligini yuksaltirish hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masala hisoblanmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o‘sib bormoqda, aholining real daromadlari oshirib borishga erishilmoqda. Aholini ish bilan ta’minlash xususida gap ketganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, xususan, shaxsiy tomorqa, xonadon va dehqon xo‘jaligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirishga ko‘proq ahamiyat berib kelindi. Yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan unumli foydalanib, faoliyatini tobora rivojlantirayotgan tadbirkorlar safi yildan-yilga kengayib, ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan olinadigan daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda.

Biroq, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i (shu jumladan, qat’iy belgilangan soliq) majburiyatga ega bo‘lmagan, qonunchilik asosida imtiyozlar taqdim etilgan hamda



norasmiy band bo'lgan jismoniy shaxslar daromadlarining jami aholi daromadlaridagi salmog'i katta ekanligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Yig'ilayotgan jami soliqlarda jismoniy shaxslardan olinayotgan daromad solig'ining ulushi ham salmoqli. 2023 yilda jami soliq tushumlarida ushbu soliqning ulushi 18 foizni tashkil qildi.



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning summasi va ulushi yildan yilga oshib bormoqda.

Aholining mustaqil bandlik va mol-mulkni ijaraga berishdan, shuningdek, to'lov manбайдan ushlab qolish imkoniyati mavjud bo'lmagan boshqa daromadlardan shakllanadigan daromadlarini soliqqa tortilishi mukammal tizim shakllanmaganligi oqibatida norasmiy iqtisodiyotni paydo bo'lib, yashab kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida aholi daromadlarini soliqqa tortishda tengsizlikni keltirib chiqarib, aholi orasida soliq to'lash madaniyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholi daromadlaridagi bu kabi tengsizlikni qisqartirish va bartaraf etish masalasi rivojlangan mamlakatlarda ma'lum darajada hal etilgan. Biroq, O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammo sifatida hanuzgacha qalqib chiqmoqda.



Shu sababli, xorij amaliyotini chuqurroq o'rgangan holda bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi zamonda turli manbalar orqali shakllanayotgan daromadlarni soliqqa tortish maqsadida hozirda mavjud soliq organlariga daromadlari haqida deklaratsiya asosida ma'lum qilish mexanizmini tezroq takomillashtirish va qamrovini kengaytirish zarur.

Aholi daromadlarining bosqichma-bosqich umumdeklaratsiyalash mexanizmini joriy qilgan holda barcha aholi uchun dastlab ixtiyoriylik asosida keyinchalik majburiy tartibda o'tkazish taklif etiladi.

Birinchi navbatda, davlat organlari mansabdor shaxslarining daromadlari va yirik xarajatlari bo'yicha, keyinchalik tadbirkorlik sub'ektlari ta'sischilarini daromadlarini deklaratsiyalash majburiyatini qonunchilikka kiritish taklif qilinadi.

Shuningdek, soliq tizimida bevosita deklaratsiya asosida soliq solish masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus tuzilma tuzilishi taklif etiladi.

Aholining ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash maqsadida, yillik daromadlarining ma'lum bir qismini soliq to'lovchining sog'ligini tiklash uchun yo'naltirilgan taqdirda daromad solig'i bazasidan chegirish imkoniyatini taqdim etish taklif qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyada aks ettirilgan ma'lumotlarni ishonchligi va soliqqa tortish bazasini to'g'ri hisoblashda daromad olingan sanani aniqlash muhim hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, Respublikasi Soliq kodeksining 367-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, Soliq kodeksining 367-moddasiga daromad olingan sanani quyidagicha aniqlashni taklif etamiz:

- mehnatga haq to'lash tarzida daromad olinganda bunday daromadning olingan sanasi deb, soliq to'lovchiga mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida mehnat majburiyatlarini bajarganligi uchun, unga daromadlar hisoblangan oyning oxirgi kuni e'tirof etiladi,



- shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan ish qidirish davriga kompensatsiya to‘langan sanani e’tirof etish.

Yuqorida qayd etilgan taklif va tavsiyalar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.